

Rajjabov Muhammad

*Muallif: Urganch Davlat Pedagogika
instituti Milliy g'oya , ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi yo'nalishi 1- bosqich
talabasi*

Annotatsiya : *Ushbu maqolada bola huquqlarining nimaligi va uning turlari va tasniflari yoritiladi. BMTning bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi izohlanadi . Jahon jamoatchiligida bola huquqlari ta'minlanishi va muhofaza qilinishi yoritiladi .*

Kalit so'zlar : *Bola , voyaga yetmaganlar , oila , yoshlar, hamjamiyat , huquq , deklaratsiya , konvensiya , xalqaro , BMT , qonun , hujjat , bolalar kuni , Oliy Majlis , konstitutsiya .*

Bolalik inson hayotining eng muhim davrlarida biridir . Yosh murg'ak go'dak go'yoki oppoq qog'oz misoldir , unga nimani yozsangiz shu narsa aks etadi . Har bir farzandning yetuk va barkamol shaxs bo'lib , voyaga yetishida unga berilgan ta'lim , tarbiya , atrof-muhit , oila va kattalar roli muhim hisoblanadi . Hozirgi kunda bolalarga g'amxo'rlik qilish , ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish va ta'minlash rivojlangan davlatlar siyosatining alohida yo'nalishi va tarmog'ini tashkil etmoqda . Bu borada ham jahon jamoatchiligi ham qo'l qovushtirib o'tirgani yo'q , bir qancha xalqaro tashkilotlar tomonidan bola huquqlarini ta'minlash borasida dunyoning barcha davlatlari uchun xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan deklaratsiya , konvensiya va shunga o'xshash bir qancha normativ -huquqiy hujjatlar qabul qilinib amaliyotga joriy etilganligi quvonarli holdir . Kelajakimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni har tomonlama munosib tarbiyalashda ularni jismonan ham ma'nan kamol topishlarini ta'minlash lozim . Har bir bola dunyoga kelishidan oldin huquq va manfaatlarga ega bo'la boshlaydi . Farzandga g'amxo'rlik eng avvallo ona vujudidaligi davridadan boshlanishi maqsadga muvofiqdir . Har bir ota-ona uchun farzand bebaxo ne'matdir , inson o'z farzandi uchun umrini baxshida etadi . Uning munosib hayot kechirishi , ulg'ayib el-yurtga nafi tegadigan inson bo'lib yetishishiga umid qiladi . " Guruch kurmaksiz bo'lmaydi " deganlaridek ba'zi bir insonlarning yoshlikda shoshma -shosharlik bilan qilgan xatolari sababli norasida go'daklar jabr chekadi . Allox tarafidan berilgan farzand atalmish ne'matning qadriga yetmay undan voz kechishadi . Ota-onasining qilgan xatosi uchun farzand aybdor emasku , bu murg'ak go'daklarlar hamma bolalar qatori ota-onasining suyib erkalashi , mexriga muxtojdir . Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga

binoan yetim bolalarning munosib shaxs sifatida kamol topishlari uchun barcha sharoitlar , moddiy va ma'naviy g'amxo'rliklar , ularning yeb-ichishlar , kiyim-chaklari , yashash sharoitlari , o'rta ta'lim va oliy ta'lim olishlari uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar davlat tarafidan ta'minlanadi va muhofaza etiladi . Aholisining 40%ni bolalar tashkil etadigan O'zbekiston uchun bola huquqlarini ta'minlash va muhofaza etish har tomonlama ustun ahamiyatga ega .

Bola huquqlari bo'yicha tizimli islohotlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston respublikasining Oliy Majlisida bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etilgandir . O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda bola huquqlar kafolatlari mustahkamlangan . Bularga quyidagi qonun hujjatlarini misol qilish mumkin : " O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida " gi , " Ta'lim to'g'risida " , " Bola huquqlar kafolatlari to'g'risida " , " Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida " , " Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to'g'risida " gi qonunlarda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi , Maktab ta'limini rivojlantirish umum milliy dasturi va boshqa qonunchilik hujjatlarida bola huquqlari muhofazasini ta'minlovchi normalar o'z ifodasini topgan .

Bola huquqlari tushunchasining izohiga qisqacha to'xtalib o'tsak , Bunda bola huquqlari inson huquqlarining bolalarga nisbatan ishlatilishidir . Bu sohadagi maxsus normalar ishlab chiqilishi , bolalarning jamiyatdagi alohida holati , oiladagi o'rni , yoshi bilan bog'liq maxsus hujjatlardir . Bola huquqlari sohasiga tegishli xalqaro hujjatlarning ko'pchiligi u yoki bu doirada bolalarga taaluqlidir . O'zbekiston respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida qo'shilgan xalqaro shartnomalardan birinchisi bu inson huquqlari bo'yicha deklaratsiya , xalqaroлик jihatdan ikkinchi hujjat esa BMTning bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyadir . Mazkur konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh assambleyasining 44-sessiyasida 1989-yilning 20-noyabrida bir ovozdan ma'qullanib qabul qilingan . Konvensiya 1959-yilda qabulgan Bola huquqlari to'g'risidagi deklaratsiyani rivojlantiradi . Deklaratsiya " Insoniyat o'zida mavjud bo'lgan barcha yaxshi narsalarni bolalarga berishga majbur " deb e'lon qilingan va shu asosida faoliyat olib boradi . Konvensiya o'zida deklaratsiya va boshqa xalqaro hujjatlardagi bolalarga taaluqli qonunlarni mujassamlashtiradi . Konvensiya barcha dunyo xalqlari uchun teng ahamiyatga ega , uning maqsadi dunyo bolalari manfaatini himoya qilishdan iboratdir .

Konvensiyada 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs bola hisoblanadi . Mazkur hujjat muqaddima , 3 qism , 54 modddan iborat . Bola huquqlari haqidagi konvensiya iqtisodiy , ijtimoiy , fuqarolik , siyosiy va madaniy hu-

quqlar yig'indisidan iborat . Bolalarni kamsitmaslik konvensiyaning asosiy tamoyillaridandir . Konvensiya ko'ra bola o'zining kamol topishida o'zi ish - tirok etishi , o'z fikrini bayon qilish huquqiga ega bu esa uning hayotiga oid masalalarni hal etishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'minlaydi .

Bolalar irqi , tanasining rangi , jinsi , tili , dini , siyosiy yoki boshqa e'tiqodi , millati , sog'ligining ahvoli , ota-onasi yoki vasiysi , yoki boshqa har qanday holatlardan qat'i -nazar har qanday kamsitishlarsiz o'z huquqlaridan foydalanishi kerak . BMTning mazkur konvensiyasi 1990-yil 2-sentabrda rasmiy kuchga kirgan bo'lib , unga O'zbekiston respublikasi 1992-yilning 9-dekabrda qo'shilgan . Konvensiyaga qo'shilgan yoki ratifikatsiya qilgan davlatlar konvensiya bajarilishi bo'yicha o'tkazilgan tadbirlarga oid ma'ruzalarni Bola huquqlari qo'mitasiga yuborib turishlari lozim . Bunday ma'ruzalarni O'zbekiston 1997-yildan yubora boshlagan .

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki , har bir qabul qilinayotgan qonun hujjatlari mazkur sohani rivojlantirish , ertamiz egalarini umid qilganimizdek munosib shaxs bo'lib kamol topishlari va ulg'ayishlariga dasturilamal bo'lib xizmat qilishi aniq . Bolalarga nisbatan bo'layotgan har qanday imkoniyat va g'amxo'rliklar kelajakimiz uchun hozirlikdir . Zero kelajak yoshlar qo'lidadir .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.BMTning " Bola huquqlari to'g'risida " gi konvensiyaga qo'shilish haqidagi Oliy kengashning 757-12-sonli qarori. 1992.9-dekabr .Toshkent
- 2.BMTning " Bola huquqlari to'g'risida " gi konvensiyasi .1989.20-noyabr
3. Husniddin Xolmatov ." 20-noyabr Butunjahon bolalar kuni " 2022. Indon huquqlari bo'yicha O'zbekiston respublikas Milliy markazining veb -sayti .
- 4.<https://lex.uz> 5.<https://lawyer.ru>